



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3807  
2026 - yil 03 - Aprel

## OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING BUYRUG'I

### Oliy ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni muvofiq buyuraman:

1. Oliy ta'lim to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Transport vazirligi, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, Sport vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Turizm qo'mitasi, Din ishlari bo'yicha qo'mita hamda Badiiy akademiya bilan kelishilgan.

3. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir  
10-Mart 2026-yil  
99 son



SHARIPOV KONGRATBAY  
AVEZIMBETOVICH

Kelishildi:

Vazir  
05-Mart 2026-yil



IKRAMOV ADXAM  
ILXAMOVICH

Vazir  
12-Fevral 2026-yil



ISLAMOV BOBIR  
FARXADOVICH

Rais  
10-Fevral 2026-yil



ABDUXAKIMOV AZIZ  
ABDUKAXAROVICH

Vazir  
06-Fevral 2026-yil



SAIDOV BAXTIYOR  
ODILOVICH

Rais  
28-Yanvar 2026-yil



TOSHBOYEV SODIQ  
DONAQULOVICH

Rais  
28-Yanvar 2026-yil



AQQULOV ABDULAZIZ  
O'ROLBOYEVICH

Rais  
27-Yanvar 2026-yil



NURIDINOV AKMAL  
VAXOBJANOVICH

Vazir  
26-Yanvar 2026-yil



XUDAYAROV ASILBEK  
ANVAROVICH

Vazirning birinchi o'rinbosari  
08-Yanvar 2026-yil



PEKOS OLEG ANDREYEVICH

Vazir  
22-Dekabr 2025-yil



MAXKAMOV ILXOM  
RUSTAMOVICH

Vazir  
22-Dekabr 2025-yil



KARIMOVA E'ZOZXON  
GAPIRJONOVNA

Vazir  
19-Dekabr 2025-yil



ABDURAXMONOV IBROXIM  
YULCHIYEVICH

Vazir  
18-Dekabr 2025-yil



NAZARBEKOV OZODBEK  
AXMADOVICH

## Oliy ta’lim to‘g‘risidagi NIZOM

Mazkur Nizom oliy ta’lim jarayoni va tizimini tashkil etish, uning moliyaviy, mulkiy hamda xalqaro hamkorlik munosabatlarini, O‘zbekiston Respublikasi milliy malakalar ramkasining 6, 7 va 8-malaka [darajalariga](#) muvofiq oliy ta’lim tashkilotlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni, shuningdek oliy ta’lim tashkilotlari talabalari va xodimlarining huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Ushbu Nizom oliy harbiy hamda harbiylashtirilgan ta’lim muassasalariga tatbiq etilmaydi.

Mazkur Nizom O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari hamda ularning filiallariga qonunchilik hujjatlariga muvofiq qo‘llaniladi.

Ushbu Nizom qoidalari nodavlat oliy ta’lim tashkilotlariga nisbatan tavsiyaviy xarakterga ega.

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**oliy ta’lim** – bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ta’minlovchi ta’lim [turi](#);

**bakalavriat** – oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalar beradigan, o‘qish davomiyligi kamida uch yil bo‘lgan tayanch oliy ta’lim [bosqichi](#);

**magistratura** – tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo‘yicha o‘qish davomiyligi kamida bir yil bo‘lgan oliy ta’lim [bosqichi](#);

**bakalavr** – bakalavriatning muayyan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim tashkilotini muvaffaqiyatli bitirgan shaxsga beriladigan akademik daraja;

**magistr** – magistraturaning muayyan mutaxassisligi bo‘yicha oliy ta’lim tashkilotini muvaffaqiyatli bitirgan shaxsga beriladigan akademik daraja;

**diplomli mutaxassis** – oliy ta’lim tashkilotlarida [1997-yilgacha](#) joriy etilgan mutaxassislik dasturlari bo‘yicha olingan oliy ma’lumot to‘g‘risidagi diplomga ega bo‘lgan shaxslar;

**oliy ta’lim tashkiloti** – oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari va ta’lim dasturlariga muvofiq muayyan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha qonunchilik hujjatlariga muvofiq ta’lim beruvchi yuridik shaxs;

**oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari** – davlat tomonidan oliy ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan talablarni belgilovchi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (bundan buyon matnda vazirlik deb yuritiladi) tomonidan tasdiqlanadigan O‘z DSt 3556:2021 “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar” (hisob raqami 43, 2021-yil 27-oktabr) va Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari [klassifikatori](#) (ro‘yxat raqami 3781, 2026-yil 28-fevral);

**oliy ma’lumot haqida davlat namunasidagi hujjat (diplom)** – oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari asosida kadrlar tayyorlovchi, davlat akkreditatsiyasidan o‘tgan (litsenziyaga ega) oliy ta’lim tashkiloti bitiruvchisiga beriladigan, uning bakalavr yoki magistr akademik darajasini tasdiqlovchi, unga uzluksiz ta’limning keyingi bosqichida o‘qishni davom ettirish yoki olgan akademik darajasiga muvofiq ishlash huquqini beruvchi davlat namunasidagi hujjat;

**malaka talablari** – oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriat yoki magistratura bitiruvchisining kasbiy faoliyat sohasi, obyektlari va turlarini, kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarni, ixtisosligini (kvalifikatsiyasini), shuningdek, mazkur kompetensiyalarni shakllanishiga xizmat qiladigan majburiy o‘quv fanlari katalogini belgilaydigan, vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan me‘yoriy-uslubiy hujjat;

**o‘quv reja** – oliy ta’limning muayyan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv faoliyati turlari, o‘quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o‘rganishning izchilligi, soatlar va kreditlardagi hajmini ta’lim davrining to‘liq muddati uchun belgilaydigan oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan tasdiqlanadigan me‘yoriy-uslubiy hujjat;

**o‘quv fani** – muayyan ta’lim yo‘nalishi va mutaxassislik bo‘yicha o‘zlashtirilishi belgilangan o‘quv rejasining tarkibiy qismi va ta’limning mazmuni bo‘lib, talaba egallashi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni o‘zida mujassam etgan tizimlashtirilgan ilmiy-uslubiy majmua;

**o‘quv dasturi** – ta’lim mazmunini belgilovchi o‘quv fanining asosiy mavzulari, mazmuni, o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, mashg‘ulotlar turlari

va axborot manbalari ko'rsatilgan oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan tasdiqlanadigan me'yoriy-uslubiy hujjat;

**o'quv yuklamasi** – o'quv dasturlarini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan akademik soatlar (kreditlar) hajmi;

**talaba** – oliy ta'lim tashkiloti bakalavriati yoki magistraturasiga belgilangan tartibda qabul qilinib, ta'lim olayotgan shaxs.

2. Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini [ta'minlaydi](#).

3. Oliy ta'limning bakalavriat bosqichi umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich kasbiy ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich kasbiy ta'lim) hamda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi [Qonuni](#) kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) negizida amalga [oshiriladi](#).

Oliy ta'limning magistratura bosqichi tegishli bakalavriat negizida amalga oshiriladi.

## **2-bob. Oliy ta'limning maqsadi va vazifalari**

4. Mamlakatning istiqbolini inobatga olgan holda yuqori malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, ilm-fan taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadigan, mustaqil fikrlay oladigan, vatanparvarlik hissiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'limning asosiy maqsadi hisoblanadi.

5. Quyidagilar oliy ta'lim sohasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari va xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, mustaqil, kreativ va tahliliy fikrlay oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim xizmatlari va oliy ta'lim olish imkoniyatlarini, shuningdek oliy ta'lim qamrovini mehnat bozori ehtiyojlari va jamiyat talab-istaklari asosida kengaytirib borish;

oliy ta'lim tashkilotlarining akademik, tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy mustaqilligini ta'minlash;

oliy ta'limning xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash, ta'lim jarayoniga xalqaro standartlar, raqamli va axborot texnologiyalari, ilg'or zamonaviy usullar va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish;

o‘zaro foydali xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, xalqaro ilmiy va akademik loyihalar, qo‘shma ta‘lim dasturlari, professor-o‘qituvchilar va talabalarning almashuvi va tajriba orttirishini joriy etish;

oliy ta‘lim davlat ta‘lim standartlari, malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlariga muvofiq bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura ta‘lim jarayonini amalga oshirish, ta‘lim sifatini yaxshilab borish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini keng jalb qilish;

oliy ta‘lim tashkilotlarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini ta‘minlash, talabalarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish hamda oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim institutida ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash;

oliy ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning o‘zaro integratsiyasini ta‘minlash hamda oliy ta‘lim tizimining innovatsion va investitsiyaviy jozibadorligini oshirish;

professor-o‘qituvchilar va talabalarning fan, texnika, texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-ijodiy faoliyati va tadqiqotlari uchun sharoit yaratish, ularning ijtimoiy himoyasini ta‘minlash hamda ushbu faoliyat jarayonida samarali yutuqlarga erishishini rag‘batlantirish;

oliy ta‘lim tashkilotlarini tizimli rivojlantirish, boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, moddiy-texnik ta‘minotini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta‘minlashning ta‘sirchan mexanizmlarini joriy etish.

### **3-bob. Oliy ta‘lim tizimining tuzilishi**

6. Oliy ta‘lim tizimi quyidagilardan [iborat](#):

oliy ta‘limning davlat ta‘lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari va ularni amalga oshiruvchi oliy ta‘lim tashkilotlari;

oliy ta‘lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik tashkilotlar;

ta‘lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlar;

oliy ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi, shuningdek uning tasarrufidagi tashkilotlar.

7. Oliy ma‘lumot haqida davlat namunasidagi hujjat (diplom) beruvchi oliy ta‘lim tashkilotlarida bakalavr va magistr larni tayyorlash oliy ta‘limning davlat ta‘lim standartlari, bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlari asosida amalga oshiriladi.

8. Oliy ta‘lim tashkilotlarining quyidagi turlari mavjud:

universitet;

institut;

akademiya;

konservatoriya;

oliy maktab;

filial;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq maqomi (statusi) ularga tenglashtirilgan boshqa oliy ta'lim tashkilotlari.

9. Oliy ta'lim tashkilotlarining turlari quyidagicha belgilanadi:

universitet – oliy ta'limning kamida uchta ta'lim sohasida hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim bo'yicha kadrlar tayyorlovchi, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan yuqori darajada shug'ullanuvchi yirik oliy ta'lim tashkiloti;

institut – oliy ta'limning kamida ikkita ta'lim sohasida hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim bo'yicha kadrlar tayyorlovchi, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanuvchi oliy ta'lim tashkiloti;

akademiya – oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limning muayyan yo'nalish va mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlovchi, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda muayyan yo'nalish bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshiruvchi oliy ta'lim tashkiloti;

konservatoriya – musiqa san'ati sohasi bo'yicha oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, ushbu soha bo'yicha kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda ilmiy tadqiqot faoliyatini amalga oshiruvchi oliy ta'lim tashkiloti;

oliy maktab – ta'limning muayyan yo'nalish va mutaxassisliklari bo'yicha amaliy mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshiruvchi oliy ta'lim tashkiloti;

filial – oliy ta'limning ehtiyoj yuqori bo'lgan yo'nalish va mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlovchi, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda ilmiy tadqiqot faoliyatini amalga oshiruvchi oliy ta'lim tashkilotining hududlarda tashkil etilgan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tarkibiy bo'linmasi.

10. Oliy ta'lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va ta'lim berish shakllari bo'yicha fakultetlar, registrator ofislari, filiallar, kafedralar, o'quv, o'quv va ilmiy laboratoriyalar, ilmiy tashkilotlar, IT-klaster (axborot texnologiyalar parki, texnopark) va boshqa tarkibiy bo'linmalar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi.

11. Oliy ta'lim tashkilotlarida oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha malaka

talablarining bajarilishi hamda kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish vazirlik tomonidan amalga [oshiriladi](#).

#### **4-bob. Bakalavriat va magistratura**

12. Bakalavriat ta'lim bosqichi bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlarida o'qitish kunduzgi, sirtqi, kechki, masofaviy, dual va qonunchilikda belgilangan boshqa ta'lim shakllarida amalga oshiriladi.

13. Bakalavriat ta'lim bosqichida o'qish kamida [uch yil](#) davom etadi. Bakalavriatda ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qish muddati kunduzgi ta'lim shakliga nisbatan sirtqi ta'lim shaklida kamida bir o'quv yili, kechki ta'lim shaklida kamida yarim o'quv yili muddatiga uzaytiriladi.

14. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari asosida kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat va magistratura bitiruvchilariga davlat attestatsiyasi natijalariga ko'ra tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi va ixtisoslik (kvalifikatsiya) yoki magistratura mutaxassisligi va ixtisoslik (kvalifikatsiya) bo'yicha oliy ma'lumot haqida davlat namunasidagi hujjat (diplom) va uning ilovasi beriladi.

15. Bakalavrlar va magistratlarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablarida belgilanadi.

16. Oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisligining o'quv reja va o'quv dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar va ularni ishlab chiqish, malaka talablarining asosiy qoidalari va ularni ishlab chiqish tartibi, o'quv yuklamasining hajmi, kadrlar tayyorlash sifatini baholash O'z DSt 3556:2021 "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar" O'z DSt 3556:2021 "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar" (hisob raqami 43, 2021-yil 27-oktabr) asosida belgilanadi.

Oliy ta'limning bilim sohalari, ta'lim sohalari hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari [klassifikatorida](#) (ro'yxat raqami 3781, 2026-yil 28-fevral) belgilanadi.

17. Bakalavr va magistrning kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat sohasining obyektlari va turlari, kasbiy vazifa va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar, ixtisosligi (kvalifikatsiyasi), shuningdek mazkur kompetensiyalarni shakllanishiga xizmat qiladigan majburiy o'quv fanlari katalogi har bir bakalavriat ta'lim yo'nalishi

va magistratura mutaxassisligi bo'yicha ishlab chiqiladigan malaka talablarida belgilanadi.

18. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassislarining malaka talablari bevosita kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilotlarning talab va takliflari asosida hamda ular bilan hamkorlikda oliy ta'lim tashkilotlari (oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim sohalari bo'yicha uyushmalari) tomonidan ishlab chiqiladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassislarining malaka talablari asosida oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan o'quv reja va o'quv dasturlari (sillabuslari) ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

19. Bakalavr:

oliy ma'lumotli shaxs egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda ishlash;

bakalavriatning mos va turdosh ta'lim yo'nalishi negizidagi tanlagan mutaxassisligi bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida qo'shimcha kasbiy bilimlarni olish uchun tayyorlanadi.

20. Oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) bo'yicha malaka talabi, o'quv rejasi, o'quv dasturlari (sillabuslari) hamda tegishli uslubiy ko'rsatmalardan iborat me'yoriy-uslubiy hujjatlar majmuasi ushbu ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi)ning ta'lim dasturi deb yuritiladi.

21. Magistratura va magistralar tayyorlashning asosiy qoidalari, tartibi va talablari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 2-martdagi 36-son qarori bilan tasdiqlangan Magistratura to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi.

22. Oliy ta'lim tashkilotlarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [qarori](#) asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutiga kirish, ilmiy va oliy ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sohasida diplomli mutaxassis diplomli magistr diplomli bilan teng huquqli [hisoblanadi](#).

## **5-bob. Ta'lim jarayonini tashkil etish**

23. Oliy ma'lumot haqida davlat namunasidagi hujjat (diplom) beruvchi oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayoni oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlariga muvofiq tashkil etiladi.

24. Oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv mashg'ulotlarining ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, kollokvium, kurs ishi (loyihasi), yakka tartibdagi o'quv mashg'uloti, maslahat, mustaqil ta'lim, mustaqil ish, o'quv dala amaliyoti, malakaviy amaliyot, tajriba orttirish (stajirovka), bakalavriat talabalari uchun bitiruv malakaviy ishi, diplom loyihasi, magistrantlar uchun magistrlik dissertatsiyasi va boshqa turlari joriy qilinadi.

25. O'quv jarayoni Kredit to'plash va ko'chirishning Yevropa tizimiga (European Credit Transfer and Accumulation System – ECTS) asoslangan milliy kredit-modul tizimiga muvofiq amalga oshiriladi.

Kredit-modul tizimini ta'lim jarayoniga tatbiq etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi [nizom](#) hamda oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumatining qarorlariga muvofiq oliy ta'lim tashkilotlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv jarayoni kredit-modul tizimidan boshqa tizim asosida amalga oshirilishi mumkin.

26. Oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv yili, odatda, talabalar o'zlashtirishini nazorat qilish uchun o'tkaziladigan yakuniy baholash bilan tugaydigan ikki semestrda bo'linadi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi [nizom](#) (ro'yxat raqami 3069, 2018-yil 26-sentabr) asosida amalga oshiriladi.

27. Malakaviy amaliyotlarning barcha turlari davlat oliy ta'lim tashkilotlarida, oliy ta'lim tashkiloti va amaliyot o'tilishi mo'ljallangan tashkilot o'rtasidagi ikki tomonlama shartnoma asosida, o'quv rejalar va qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'tkaziladi.

28. Oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va o'quv dasturlarini o'zlashtirish natijalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrda 836-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi [nizomga](#) asosan baholanadi.

29. Jismoniy shaxslar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olish huquqiga ega.

30. Oliy ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

– o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish komplekslarini yaratish;

– yetakchi olim va ishlab chiqarish mutaxassislarini o‘quv jarayoni va ilmiy tadqiqotlarga jalb etish;

– amaldagi qonunchilikka muvofiq, ilmiy tashkilotlarda, korxonalar va muassasalarda oliy ta’lim tashkilotlari markazlari, laboratoriyalari va kafedralari filiallarini yaratish.

## **6-bob. Oliy ta’lim tashkiloti talabalari**

31. Talabaga talabalik guvohnomasi (ID kart) berilishi mumkin.

32. Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarni o‘qitish faoliyati Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi yordamida tartibga solinadi va monitoring qilinadi.

33. Oliy ta’lim tashkilotlarining talabalari quyidagi huquqlarga ega:

oliy ta’limning davlat ta’lim standartlariga muvofiq yuqori sifatli oliy ta’lim olish;

fan, texnika va zamonaviy texnologiyalar rivojlanishining ayni vaqtdagi rivojlanish darajasiga muvofiq bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o‘quv reja va o‘quv dasturlarini yanada takomillashtirish yuzasidan oliy ta’lim tashkiloti rahbariyatiga taklif berish;

oliy ta’lim tashkilotlari faoliyati bo‘yicha ta’lim jarayoniga oid muhokamalarda ishtirok etish;

kutubxona, axborot resurslari, o‘quv, ilmiy, davolash va boshqa bo‘linmalar xizmatidan oliy ta’lim tashkiloti nizomida belgilangan tartibda bepul foydalanish;

ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlarda, anjumanlarda, simpoziumlarda, xalqaro va respublika ko‘rgazmalarida, festivallarda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlari bo‘yicha tayyorlagan ishlarni nashrga taqdim etish;

oliy ta’lim tashkiloti rahbariyati qarorlaridan norozi bo‘lgan taqdirda, belgilangan tartibda shikoyat qilish;

oliy ta’lim tashkiloti talabalarining akademik [mobillik](#) va qo‘shma [ta’lim](#) dasturlarida ishtirok etish.

Talabalar qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

34. Oliy ta’lim tashkilotining o‘quv bo‘linmalarida harbiy tayyorgarlik ta’limidan o‘tmagan talabalar ta’lim muassasasini tamomlaganlaridan keyin O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat

to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq muddatli harbiy xizmatni o'tash uchun [chaqiriladilar](#).

35. Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarni ta'lim olish bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga jalb etish taqiqlanadi.

36. Talabalar ta'lim dasturlarida belgilangan bilimlarni olishlari, o'quv rejada tavsiya etilgan majburiy hamda tanlov fanlarini o'zlashtirishi, o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha turdagi mashg'ulotlarda berilgan topshiriqlarni belgilangan muddatda bajarishlari, oliy ta'lim tashkilotining nizomiga, ichki tartib qoidalari va talabalar turar joyi talablariga rioya qilishlari shart.

37. Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalari talabalariga stipendiyalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomga asosan stipendiya [to'lanadi](#).

38. Talabalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi 226-son "O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi [qaroriga](#) asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini olishlari mumkin.

39. Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar o'quv mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarida, o'qish jarayoniga zarar yetkazmagan holda, mehnat qonunchiligiga muvofiq va unda belgilangan me'yorlardan oshmagan hajmda mehnat shartnomasi asosida oliy ta'lim tashkilotining o'zida yoki boshqa korxonada va tashkilotlarda ishlashi mumkin.

40. Ta'lim jarayonida talabalarga akademik ta'til berilishi mumkin. Akademik ta'til berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 344-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari talabalariga akademik ta'til berish to'g'risidagi [nizomga](#) muvofiq amalga oshiriladi.

41. Ta'lim dasturida belgilangan fanlarni o'zlashtira olmagan [talabalar](#) akademik qarzdor hisoblanadi va akademik qarzlarni bartaraf etish jarayoni bilan bog'liq masalalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari [to'g'risida](#)"gi hamda 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash [to'g'risida](#)"gi qarorlari bilan tartibga solinadi.

42. Boshqa shaharlardan kelgan va turar joyga muhtoj talabalarga talabalar turar joyidan belgilangan tartibda muayyan muddatga oliy ta'lim muassasasi imkoniyatlaridan kelib chiqib joy berilishi [mumkin](#).

Talabalar turar joyi bilan qamrab olinmagan va o'ziga, shu jumladan ota-onasi (qonuniy vakillari)ga tegishli bo'lmagan uyda ijara huquqi asosida yashaydigan davlat oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining 60 foiziga ular tomonidan to'lanadigan oylik ijara to'lovining 50 foizi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplab [beriladi](#).

Oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan mazkur tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ijara huquqi asosida yashaydigan boshqa talabalarga ham oylik ijara to'lovining bir qismi qoplab berilishi [mumkin](#).

Talabalar turar joylaridan qonunchilikda belgilanmagan boshqa maqsadlarda (ijaraga berish, oldi-sotdi, hadya va boshqalar) foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

43. Oliy ta'lim tashkilotlarida ichki tartib-qoidalari va odob-axloq qoidalariga muvofiq talabalar:

a) 18 soat dars qoldirgan taqdirda (salomatligi sababli belgilangan shakldagi tibbiy ma'lumotnoma taqdim etilgan holat bundan mustasno) oliy ta'lim tashkiloti tomonidan ogohlantiriladi;

b) 36 soat dars qoldirgan taqdirda (salomatligi sababli belgilangan shakldagi tibbiy ma'lumotnoma taqdim etilgan holat bundan mustasno) oliy ta'lim tashkiloti tomonidan qat'iy ogohlantiriladi va bu haqda ota-onasi (ularning o'rini bosuvchi shaxslar) xabardor qilinadi.

44. Oliy ta'lim tashkiloti talabalari safidan chetlashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan amalga [oshiriladi](#).

## **7-bob. Oliy ta'lim tashkiloti xodimlari**

45. Oliy ta'lim tashkilotlarida Oliy ta'lim muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlariga muvofiq (ro'yxat raqami 2859, 2017-yil 21-fevral) pedagog xodimlar, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar faoliyat olib [boradi](#).

Pedagog xodimlar tarkibiga kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, assistent, o'qituvchi, o'qituvchi-stajyor lavozimida ishlayotgan shaxslar kiradi.

Pedagog xodimning maqomi va pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga oid cheklovlar O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi [Qonuniga](#) asosan belgilanadi.

46. Oliy ta'lim tashkiloti professor-o'qituvchilari tarkibining soni mos ravishda bakalavriat va magistraturada Oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim sohalari (ta'lim yo'nalishlari) bo'yicha bir nafar o'qituvchi hisobiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbatining [normativlariga](#) (ro'yxat raqami 3345, 2022-yil 24-yanvar) muvofiq bo'lishi lozim.

47. Professor-o'qituvchilarning egallab turgan lavozimiga ko'ra o'quv yuklamasi hajmi fakultet dekanining (kafedra mudirlari) takliflariga muvofiq kelgusi o'quv yili boshlanguniga qadar oliy ta'lim tashkiloti Kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi hamda yagona taqsimot shaklida [tasdiqlanadi](#).

48. Oliy ta'lim tashkiloti professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasi hamda o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, "ustoz-shogird" va boshqa ish turlarini belgilash Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlarini belgilash [qoidalariga](#) (ro'yxat raqami 3076, 2018-yil 8-oktabr) muvofiq belgilanadi.

Professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasi hajmini belgilashda, shuningdek, ularning ilmiy darajasi va ilmiy unvoni ham inobatga olinishi mumkin.

49. Oliy ta'lim tashkilotlariga pedagog xodimlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 10-fevraldagi 20-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi [nizomga](#) asosan ishga qabul qilinadi.

50. Oliy ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining lavozimlariga qo'yiladigan malaka ramkalari va kasbiy standartlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-345-son "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [qaroriga](#) asosan belgilanadi.

51. Oliy ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari quyidagi huquqlarga [ega](#):  
qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorlarda mehnat haqi, ustama va moddiy rag'batlantirish to'lovlarini olish;

zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, o'qitish va tarbiya vositalarini hamda usullarini erkin tanlash va ulardan foydalanish;

belgilangan tartibda mualliflik dasturlarini va o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish va joriy etish, ijodiy faollik ko'rsatish, shuningdek tegishli o'quv fanlari, kurslari va modullaridan foydalanish;

kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;

o'quv, ilmiy va uslubiy yo'nalishlardagi davlat axborot-resurs hamda axborot-kutubxona markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish;

oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini, malaka talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish;

ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, tajriba-sinov faoliyatida ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq ijodiy va mehnat ta'tili olish;

ta'lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek ta'lim tashkilotining faoliyati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

o'z kasbiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish uchun pedagoglarning jamoat birlashmalariga birlashish va ularda ishtirok etish;

o'z kasbiy faoliyatiga g'ayriqonuniy ravishda aralashuvdan himoyalani;

pedagogik faoliyati davomida o'ziga biriktirilgan kursdagi (guruhdagi) ta'lim oluvchilarning bilimini mustaqil baholash;

talabalar va ularning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, qonuniy vakillari) tomonidan pedagogning kasbiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni talab qilish;

davlat sog'liqni saqlash muassasalarida majburiy tibbiy ko'rikdan bepul o'tish (davlat ta'lim tashkilotlari uchun);

oliy ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish;

oliy ta'lim tashkiloti rahbariyatining buyruqlari va qarorlaridan norozi bo'lganda qonunchilikda belgilangan tartibda murojaat qilish.

Pedagog xodimlar qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

52. Oliy ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining majburiyatlari quyidagilardan [iborat](#):

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;

o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi;

o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rishi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;

dars berayotgan fanlari orqali talabalarda tanlagan yo‘nalish (mutaxassisligi) bo‘yicha tegishli kompetensiyalarni shakllantirishi;

ta’lim oluvchilarning psixologik va o‘ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e’tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi;

o‘z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o‘tishi;

oliy ta’lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta’sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi;

o‘quv va ilmiy-tadqiqot jarayonlarining yuqori samaradorligini ta’minlashi; talabalarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlikni va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishi;

majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘z vaqtida o‘tishi shart.

Pedagog xodimlarga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham berilishi mumkin.

53. Oliy ta’lim tashkilotlarida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi [qaroriga](#) asosan amalga oshiriladi.

## **8-bob. Oliy ta’lim tizimini boshqarish**

54. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tashkilotining boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirlik, tasarrufida oliy ta’lim tashkilotlari bo‘lgan vazirliklar va idoralar tomonidan qonunchilik hujjatlari asosida ularga berilgan vakolatlar doirasida amalga oshiriladi.

55. Davlat oliy ta’lim tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga, shtampiga, blankalariga va qonun hujjatlariga muvofiq o‘zining faoliyati uchun zarur bo‘lgan boshqa xizmat belgilari va rekvizitlarga ega bo‘ladi.

56. Oliy ta’lim tashkilotlarining bevosita boshqaruvi uning rektori (direktori) tomonidan amalga oshiriladi.

57. Davlat va davlat ulushi mavjud bo‘lgan oliy ta’lim tashkilotining rektori (xorijiy oliy ta’lim tashkiloti filialining mahalliy rektori yoki direktori, ijrochi

direktori) bo'ysunuvi bo'yicha tegishli vazirlik va idora rahbarining tavsiyasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod [etiladi](#).

58. Oliy ta'lim tashkilotining faoliyati uchun rektor (direktor) mas'ul hisoblanadi.

59. Rektor (direktor) O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari va oliy ta'lim tashkilotining ustaviga muvofiq oliy ta'lim tashkiloti nomidan faoliyat yuritadi, belgilangan tartibda mol-mulkka egalik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalarni taqdim etadi.

60. Oliy ta'lim tashkiloti vakolatlari doirasida rektor (direktor):  
prorektorlar (direktor o'rinbosarlari), dekanlar va boshqa tarkibiy bo'linmalarning aniq vazifalari, majburiyatlari va mas'uliyatini belgilab beradi;

oliy ta'lim tashkiloti xodim, professor-o'qituvchilar va talabalar bajarishi majburiy bo'lgan buyruq va topshiriqlar chiqaradi;

ishchi va xizmatchilar hamda pedagogik xodimlarni O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi;

oliy ta'lim tashkiloti tarkibiga kiruvchi ilmiy-tadqiqot, tajribaviy-eksperimental va boshqa tashkilotlar hamda bo'limlarning vakolatlarini aniqlab beradi va ular to'g'risidagi nizom (yo'riqnoma)larni tasdiqlaydi;

oliy ta'lim tashkiloti xodimlari lavozim maoshlariga ustama va boshqa qo'shimcha to'lovlarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda belgilab beradi;

kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki boshqa davlat vakolatli organi bilan kelishilgan holda ichki tartib-qoidalarini tasdiqlaydi;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni bajaradi.

61. Rektor (direktor) oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda, oliy ta'lim tashkiloti Kengashining tavsiyasiga ko'ra fakultetlar, kafedralar va boshqa tarkibiy bo'linmalarni tashkil etish va tugatish huquqiga ega (moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim tashkilotlari bundan mustasno).

62. Oliy ta'lim tashkiloti faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib chiqish uchun oliy ta'lim tashkiloti Kengashi tashkil qilinadi.

Oliy ta'lim tashkiloti Kengashning tarkibi, vakolatlari, shakllantirish tartibi va faoliyati oliy ta'lim tashkiloti rektori tomonidan belgilanadi.

63. Davlat va davlat ulushi mavjud bo'lgan oliy ta'lim tashkilotlarining prorektorlari (mahalliy oliy ta'lim tashkilotlarining filiali direktori, uning

o‘rinbosarlari, xorijiy oliy ta‘lim tashkiloti direktori o‘rinbosarlari) oliy ta‘lim tashkiloti rektorining tavsiyasiga asosan bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlik va idora rahbari tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi, bunda kelishuv masalalari qonunchilikda belgilangan tartibda amalga [oshiriladi](#).

64. Davlat oliy ta‘lim tashkilotlarining fakultet dekanlari hamda bo‘lim boshliqlari oliy ta‘lim tashkilotining rektori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

65. Oliy ta‘lim tashkilotida jamoatchilik boshqaruv organi sifatida Vasiylik (Kuzatuv) kengashi tashkil qilinishi mumkin. Qoida tariqasida, uning tarkibiga ta‘sischi(lar), mahalliy davlat hokimiyati organlari, vazirlik va idoralar, muassasa va tashkilotlar, ish beruvchilar, sanoat hamkorlari, boshqa ta‘lim tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, jamg‘armalar va homiylarning vakillari kiradi.

66. Oliy ta‘lim tashkiloti o‘z huzuridagi akademik litseylar hamda ixtisoslashgan maktablarning faoliyatiga o‘quv-uslubiy ko‘mak [ko‘rsatadi](#).

67. Amaldagi qonunchilik va oliy ta‘lim tashkiloti ustaviga muvofiq unda jamoat tashkilotlari, ilmiy va ko‘ngilli jamiyatlar, ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar, ilmiy-uslubiy, ilmiy-texnik va boshqalar tashkil qilinishi mumkin.

68. Oliy ta‘lim tashkilotlarining tuzilmalari tegishli oliy ta‘lim tashkilotlarining rektorlari (mahalliy oliy ta‘lim tashkilotlari filiallarining direktorlari) tomonidan oliy ta‘lim tashkilotlari uchun belgilangan normativlarga muvofiq bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlik va idora bilan kelishilgan holda [tasdiqlanadi](#) (moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta‘lim tashkilotlari bundan mustasno).

## **9-bob. Oliy ta‘lim tashkilotining mulki**

69. Oliy ta‘lim tashkiloti jamg‘armalar va aylanma mablag‘lar, shuningdek uning ustavida belgilangan faoliyatni ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan boshqa moddiy resurslarga ega bo‘lishi mumkin.

70. Oliy ta‘lim tashkiloti homiylik, beg‘araz yordam shaklida unga jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan o‘tkazilgan pul mablag‘lari va mulkni, shuningdek qonunchilik hujjatlariga muvofiq, xalqaro va moliyaviy tashkilotlar va xorijiy davlatlar vakolatxonalari bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyihalar doirasida beg‘araz berilgan mol-mulk hamda tadbirkorlik faoliyatidan olingan foyda va xo‘jalik hisobidagi mulkdan foydalanishdan tushgan daromadlarni olish va mustaqil tasarruf qilish huquqiga ega.

71. Oliy ta'lim tashkilotining mulklaridan foydalanish tartibi, shuningdek, oliy ta'lim tashkilotining daromadlarini olish va undan foydalanish tartibi uning ustavida belgilanadi.

72. Oliy ta'lim tashkiloti uning faoliyati natijasi hisoblanuvchi intellektual va ijodiy mehnat mahsuliga egalik qilish huquqiga ega.

73. Davlat oliy ta'lim tashkilotiga belgilangan tartibda ajratilgan yer maydonlari doimiy bepul foydalanish uchun unga biriktirib qo'yiladi.

### **10-bob. Mablag' ajratish, hisob-kitob va hisobot berish**

74. Oliy ta'lim tashkilotlariga mablag' ajratish mutaxassislar tayyorlashga ajratiladigan davlat grantlariga muvofiq respublika budjeti mablag'lari, shuningdek amaldagi qonunchilik hujjatlari va mazkur Nizomga muvofiq jalb qilingan budjetdan tashqari manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Korxonalar, tashkilot va fuqarolardan shartnoma asosida olingan mablag'lardan oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan qonunchilik hujjatlariga va shartnoma shartlarida nazarda tutilgan maqsadlarga muvofiq foydalaniladi.

75. Oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan o'tkazilayotgan ilmiy tadqiqotlar mazkur maqsadlar uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-son qarori bilan tasdiqlangan Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi to'g'risidagi [nizomga](#) asosan ajratilgan O'zbekiston Respublikasi budjeti mablag'lari, buyurtmachilar mablag'lari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

76. Oliy ta'lim tashkiloti qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda budjet hisobini yuritadi va moliyaviy hisobotlarini tuzadi, statistik va buxgalteriya hisobini olib boradi.

77. Oliy ta'lim tashkilotida budjet va moliyaviy intizom ustidan nazorat budjet to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### **11-bob. Xalqaro hamkorlik va [qo'shma ta'lim](#) dasturlari asosida kadrlar tayyorlash**

78. Oliy ta'lim tashkiloti oliy ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikni xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan tuzgan ikki va ko'p tomonlama shartnomalar doirasida quyidagi yo'llar orqali amalga oshiradi:

talabalar, tayanch doktorantlar, doktorantlar, pedagogik va ilmiy xodimlarni ikki va ko'p tomonlama almashuv dasturlarida ishtirok etish;

qo'shma fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlar olib borish, kongresslar, anjumanlar, simpoziumlar va boshqa tadbirlar o'tkazish;

oliy ta'limni takomillashtirish bo'yicha xalqaro dasturlarda ishtirok etish;

xalqaro reytingi yuqori bo'lgan, nufuzli xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida integratsiyalashtirilgan ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash jarayonini yo'lga qo'yish;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq qo'shma oliy ta'lim tashkilotlarini yaratish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-iyuldagi 421-son "O'zbekiston Respublikasi va xorijiy hamkor oliy ta'lim tashkilotlarining qo'shma ta'lim dasturlari asosida ta'lim faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroriga asosan qo'shma ta'lim [dasturlari](#) asosida ta'lim jarayonini amalga oshirish;

xorijiy tashkilot va korxonalar, oliy ta'lim tashkilotlari bilan ilmiy-ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish.

79. Xorijiy fuqarolarni O'zbekiston Respublikasida o'qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijiy mamlakatlarda pedagogik va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi davlatlararo, idoralararo, shuningdek xorijiy yuridik shaxslar bilan oliy ta'lim tashkiloti tomonidan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

## **12-bob. Yakuniy qoidalar**

80. Oliy ta'lim tashkiloti qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tugatiladi va qayta tashkil etiladi.

81. Oliy ta'lim tashkiloti faoliyatidan norozi bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda oliy ta'lim tashkilotlari tasarrufida bo'lgan vazirliklar va idoralarga yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega.

82. Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.